

Инглиз tilidagi an'anaviy o'lchov birliklarining funksional-semantik tavsifi

Boboyeva Muazzam Narimonovna
telfonsmsng@gmail.com

Stajyor-o'qituvchi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilida qo'llaniladigan an'anaviy o'lchov birliklarining funksional-semantik tavsifi, mazmuni atroflicha o'rganilib chiqiladi. Mazkur maqolada esa ingliz tilidagi an'anaviy (standartlashmagan) va asrlardan beri foydalanib kelinayotgan o'lchov birliklari haqida gap boradi. Shu bois asosan, AQSH va Buyuk Britaniya, qolaversa, butun dunyoda muomalada bo'lgan o'lchov birliklari haqida fikr yuritiladi. Hozirgi paytda har qanday o'lchov jarayoni turli standart o'lchov birliklari yordamida amalga oshiriladi. Masalan, metr, gram, sekund va hokazolar (SI sistemasini eslang). Ammo o'tmishda, XX asrning oxirlarigacha bu tizimlar bo'lmagan va hamma xalqlar o'zlari qadimgi davrlardan foydalanib kelgan o'sha qarich, tirsak, qadam, hovuch va hokazo shu kabi birliklardan foydalanib o'z yumushlari, ehtiyojlari doirasida ishlarni bajarib yashaganlar. SI sistemasigina o'lchov tizimini xalqaro miqyosda standartlashning imkonini yaratdi. Bu esa xalqaro miqyosda bir xil talablar asosida o'lchash yordamida chiqaradigan mahsulotining jahon miqyosida xaridorgir bo'lib tayyorlanishiga erishishga olib kelgan.

Kalit so'zlar: o'lchash jarayoni, etalon, masofa, zichlik, massa, hajm, maydon, massa.

Функционально-семантическое описание традиционных единиц измерения в английском языке

Бобоева Муаззам Наримоновна
telfonsmsng@gmail.com

Стажер-преподаватель

Наманганский государственный институт
иностранных языков имени Исхокхона Ибрата

Аннотация: В данной статье всесторонне рассматривается функционально-семантическое описание и значение традиционных единиц измерения, применяемых в английском языке. В частности, речь идет о нестандартизированных, но исторически укоренившихся единицах измерения, используемых на протяжении веков. Основное внимание уделяется единицам измерения, применяемым в США и Великобритании, а также имеющим хождение в международной практике. В настоящее время любой процесс измерения осуществляется с использованием различных стандартных единиц измерения – таких как метр, грамм, секунда и т.д. (вспомним систему СИ). Однако в прошлом, вплоть до конца XX века, подобные стандартизированные системы отсутствовали, и народы пользовались своими традиционными мерами, унаследованными из древности, такими как пядь, локоть, шаг, пригоршня и др., исходя из повседневных нужд и практических задач. Лишь система СИ позволила стандартизировать единицы измерения на международном уровне. Это, в свою очередь, обеспечило возможность производить товары, соответствующие единым требованиям, и сделать их конкурентоспособными на мировом рынке.

Ключевые слова: процесс измерения, эталон, расстояние, плотность, масса, объём, площадь, масса.

A functional and semantic description of traditional measurement units in the English language

Boboyeva Muazzam Narimonovna
telfonsmsng@gmail.com
Intern-lecturer
Namangan State Institute of Foreign
Languages named after Is'hoqxon Ibrat

Annotation: *This article provides a comprehensive study of the functional and semantic characteristics and meanings of traditional measurement units used in the English language. It focuses on traditional (non-standardized) measurement units that have been in use for centuries. The discussion centers on measurement units commonly used in the United States and the United Kingdom, as well as those recognized internationally. Today, all types of measurements are carried out using standardized units such as meters, grams, seconds, and so on (as established by the SI system). However, in the past, up until the end of the 20th century, these systems did not exist, and every nation relied on ancient, culturally rooted units such as spans, cubits, steps, handfuls, and others, based on their daily needs and tasks. The SI system enabled the standardization of measurement units on a global scale, which in turn contributed to the production of goods that meet uniform international standards and are competitive in the global market.*

Keywords: *measurement process, standard, distance, density, mass, volume, area, mass.*

Til madaniyatni aks ettiruvchi omillardan biridir. Madaniyat esa ko'p jihatlarni va hodisalarni o'z ichiga oluvchi mohiyatdir. Millat madaniyati o'z tili yordamida borliq (olam)ning lisoniy tasvirini yaratadi. Dunyoning lisoniy tasvirini yaratishda inson ongi katta rol o'ynaydi. Tasvirni yaratish uchun birinchi navbatda uni anglash kerak. Bu jarayon lisoniy ong vositasida amalga oshiriladi. Ong dunyodagi narsa, hodisa va harakatlarni anglashi uchun ularning tuzilishi, hajmi, og'irligi, massasi, zichligi, mavjudlik holati, kuchi, harorati va shu kabi tashqi dunyo omillarini bilishi, nomlashi va ularning mavjudligiga tegishli turli ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Buning uchun u ko'zi yordamida ko'rgan holatlarni tili yordamida statik va dinamik nuqtai-nazardan baholay olishi kerak. Obyekt bir xil ko'rinishda bo'lsa, ularning dunyodagi tutgan o'rnini baholash uchun ularni turli parametrlar bo'yicha o'rganish kerak bo'ladi. Xuddi shu jarayon o'lchash jarayoni yoki o'lchov deb ataladi.

Linguistika va semiotikadagi dolzarb masalalardan biri – tilning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday ifodalanishi va qabul qilinishini tushunishdir. Til nafaqat muloqot vositasi, balki insoniyatning dunyoni anglash va o'zaro aloqalarini shakllantirishdagi muhim vositasidir. Tilshunoslikdagi bir qancha yondashuvlar tilni madaniyat, ong va jamiyat bilan chambarchas bog'laydi (de Saussure, 1959; Humboldt, 1988).

O'lchov birliklari tilning mavjud tizimi ichida o'zgacha ahamiyatga ega va ularga berilgan ma'no va funktsiyalarni tushunish, shuningdek, ular yordamida dunyoqarashni ko'rsatish muhimdir (Lyons, 1977). Har qanday o'lchash uchun qiyos qilib dunyoda mavjud obyektlar etalon qilib olinadi. Chunki etalonsiz o'lchov jarayonida yagonalik, bir xil natija ko'rsatishning imkoni yo'q. Hozirgi paytda har qanday o'lchov jarayoni turli standart o'lchov birliklari yordamida amalga oshiriladi.

O'lchov birliklari ingliz tilida an'anaviy tarzda ishlatiladigan, ko'p hollarda madaniyatning umumiy doirasida zamonaviy kundalik hayotda mavjud bo'lgan atamalardir. Masalan, vaqt va miqdor o'lchovlari insonlarning kundalik hayoti, ijtimoiy aloqalar va hatto psixologik holatlarini aks ettiradi. Bu o'lchovlarning tilshunoslikdagi ahamiyati, ularning ma'no va funktsiyalarini, shuningdek, madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglashda yotadi (Whorf, 1956; Jackendoff, 2002).

Bir o'lchovning semantik tafsiri tilning madaniy va ijtimoiy tuzilmalari bilan bevosita bog'liq. Shuningdek, ularni ijtimoiy muloqotda qanday ishlatilishini tahlil qilish, lingvistik vakillar va madaniy mazmunlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega (Eco, 1976; Halliday, 1978).

An'anaviy o'lchov birliklari bir necha guruhlariga bo'linadi.

1. Masofa, uzunlikni bildiruvchi o'lchov birliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Big line-katta chiziq (1/10d)	Cabelts-kabeltov (xalqaro)-185.2 m
Calibre-kalibr-254 mkm	Chain-cheyn-20.1168 m (aniq)
Dot, Tochka-351.460 mkm	Foot-fut-304.8 mm (aniq)
Furlong-furlong-201.168 m	Hand-qo'l-101.6 mm
Inch-dyuym-25.4 mm	Legal league-qonuniy liga (AQSH)-4.82803 km
Line-chiziq (1,12d)-2.117 mm	Link-link-201.168 mm
Macro-inch – makro dyuym-25.4 m	Mile-xalqaro milya-1.60934 km
Mile-mil-24.4 mkm	Naval league-dengiz ligasi (xalqaro)-5.55600 km
Naval mile-dengiz milyasi (Buyuk Britaniya)-1,852 km (aniq)	Naval mile-dengiz milyasi (xalqaro)-1.852 km (aniq)
Naval mile-dengiz milyasi (AQSH)-1.85318 km	Phatom-fatom (dengiz sajani)-1.8288 m
Pike, cicero-payk, sitseron-4.27252	Rod, pol, perch-rod pol perch-5.0292 m
Span-spen-226.6 mm	Yard-yard-914.4 mm

2. Maydon o'lchov birliklari

Acre (akr)-4046.86 m ²	Round mile (aylana milya) 506.708 mkm ²
Rude (rud)-1011.71 m ²	Square chain (kvadrat cheyn)-404.686 m ²
Square foot (kvadrat fut)-929.03 cm ²	Square inch (kvadrat dyuym)-645.16 m ²
Square mile (kvadrat milya)-645.16 mkm ²	Square mile (kvadrat mil)-2.58999 km ²
Square phatom (kvadrat fatom)-3.34454 m ²	Square rod, pole, perch (kvadrat rod, kvadrat pol va kvadrat perch)-25.2929 m
Square yard (kvadrat yard)-0.836127 m ²	Township (Shahar)-93.2396 km ²

3. Hajm, sig'imni bildiruvchi o'lchov birliklari.

Acre foot (akr fut)-1233.49 m ³	Bushel (bushel)-Buyuk Britaniya-36.3687 dm ³
Bushel (bushel)-AQSH-35.2391 dm ³	Cord (kord)-3.62456 m ³
Cubic Foot (kub fut)-28.3871 dm ³	Cubic Inch (kub dyuym)-16.3871 cm ³
Cubic Yard (kub yard)-0.764555 m ³	Cubic Phatom (kub fatom)-6.11644 m ³
Dry Barrell (quruq barrel)-USA-115.027 dm ³	Dry Gallon (gallon)-AQSH-4.40488 dm ³
Dry Pinta (pinta)-AQSH-0.550610 dm ³	Dry Quarta (kvarta)-AQSH-1.10122 dm ³
Gallon (gallon)-Buyuk Britaniya-4.54609 dm ³	Liquid Pinta (pinta)-AQSH-0.473176 dm ³
Oil Barrel (neft barrelli)-USA-158.987 dm ³	Oil Gallon (gallon)-AQSH-3.78541 dm ³
Oil Quarta (kvarta)-AQSH-0.946353 dm ³	Pek (pek)-Buyuk Britaniya-9.09218 dm ³
Pek (pek)-AQSH-8.80977 dm ³	Pinta (pinta)-Buyuk Britaniya-0.568261 dm ³
Quarta (kvarta)-Buyuk Britaniya-1.1361 dm ³	Registerary Ton (registr tonnasi)-2.83168 m ³
Uncia Liquid (unsiya)-Buyuk Britaniya-28.4131 cm ³	Uncia Liquid (unsiya)-AQSH-29.5735 cm ³

4. Massa, og'irlik birliklari.

Drahma (draxma)-Buyuk Britaniya-1.77185 gr	Gran (gran)-64.7989 mg
Long centner (uzun sentner)-Buyuk Britaniya-50.8023 kg	Long Ton (uzun tonna)-Buyuk Britaniya-2240 funt-1.01605 t

Pennyweight (penniveyt)-1.55517 gr	Probar Ton (probir tonnasi)-29.1667 gr
Quarter (kvarter)-12.7006 kg	Scrulpus of Drugstorer's (aptekachining skrupuli)-1.29598 gr
Short centner (qisqa sentner)ning yana bir nomi bor Quintal (kvintal)	Short Ton (qisqa tonna)-AQSH- 2000 funt-0.907185 t
Slag (slag)-14.5939 kg	Trade pound (savdo funti)-0.453592 kg
Trade pound (savdo funti)-0.453592 kg	Troyan Drahma (troya draxmasi)-3.88793 gr
Troyan Pound, Chemist's Pound (traya funti, aptekarlar funti)-31.1035 gr	

5. Zichlik o'lchov birliklari.

Long Ton in Cubic Yard (kub yarddagi uzun tonna)	Pound in Cubic Foot (kub futdagi funt)-16.0185 kg/m ²
Pound in Cubic Gallon (kub gallondagi funt)	Pound in Cubic Inch (kub dyuymdagi funt)
Pound in Cubic Yard (kub yarddagi funt)	Slag in Cubic Foot (kub futdagi slag)
Uncia in Cubic Foot (kub futdagi unsiya)	

6. Tezlik o'lchov birliklari.

Mile in an hour (soatiga mil)	Mile in a second (sekundiga mil)
Foot in an hour (soatiga bir fut)	Foot in a second (sekundiga fut)

7. Tezlanish: foot in a square second (sekundiga kvadrat fut).

Bundan tashqari ingliz tilida an'anaviy o'lchov birliklaridan poundal (paundal); short power (qisqa kuch); long power (uzun kuch); horse power (ot kuchi) va boshqalar AQSH, Buyuk Britaniya va Hamdo'stlik mamlakatlari, shu jumladan, sobiq mustamlaka mamlakatlarida hozirgacha ancha kam doirada bo'lsa-da hanuzgacha ishlatilib kelinmoqda.

Til axborot tashish, almashish, saqlash, madaniyatlar, an'analarni saqlash va avlodlardan-avlodga yetkazish kabi o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi aloqa vositasidir. Tilshunoslikda til haqidagi fikrlar o'zaro bir-biridan farqlanadi. Til odamlarning o'zaro muloqotga kirishuvda foydalaniladigan, ularning ongida saqlanadigan, biroq konkret fikrlaridan, hissiyotlaridan, istaklaridan xoli bo'lgan material birliklar tizimidir. Ilk tilshunoslar tilni belgilar tizimi sifatida o'rganishgan. Belgilar esa muayyan ma'noni va uni ifodalash vositasining umumlashmasidir, deb hisoblashgan.

Insoniyat jamiyatida muloqot, o'zaro fikr almashinuvning ro'y berishi, ya'ni qanday vositalar bilan axborotni bir-birlariga uzatish, bu vositalarning paydo bo'lishi, ularning qanday qo'llanilishi, qanday o'zgarishlarga duchor bo'lishi haqidagi fan semiotika (grekcha "sema"- belgi) deb ataladi. Tilshunos olimlardan semiotika fanining rivojlanishiga Ferdinand de Sossyur katta hissa qo'shgan. Shuning uchun agar Ch.Pirs semiotika fanining asoschisi hisoblansa, Sossyurni, tom ma'noda, tilni belgilar sistemasi sifatida o'rganadigan umumiy tilshunoslikning bir bo'limi-lingvosemiotika fanining asoschisi deb atash mumkin.

Til belgisi moddiy tuzilmadir. U voqe'likdagi predmetni, xususiyatni, munosabatlarni ifodalaydi. Til belgilarining majmui belgilar sistemasining vujudga kelishiga olib keladi. Ushbu sistema muayyan fikriy (mantiqiy) mazmun (ifodalanmish) va fonematik jihatdan bir-birlaridan ajrala oladigan belgilar (ifodalovchi) yig'indisidan iborat. Lisoniy belgining bu ikki aspekti inson ongiga doimiy bog'langani holda turg'un birikuvni hosil qiladi va ijtimoiy ahamiyatga molik ma'noni anglatadi. Bu ikkala aspektning ajralmasligi, yagona butunligi asosida borliqning muayyan bir bo'lagi, ya'ni alohida voqea va hodisalar inson ongida o'z aksini topadi va lisoniy ifodalanadi. Belgining har ikkala aspekti bir-biriga bog'liq holda mavjud bo'ladi, ammo til tizimining umumiy assimetriya qonunlariga bo'ysunadi. Eng tipik lisoniy belgi so'zdir. Chunki insoniy bilimlarning barchasi va predmetlarni obrazlari orqali bilish ajdodlarning fikrlash jarayonining natijasi sifatida so'zlarda o'z ifodasini topgan. Shunday qilib, so'z birligi kumulyativ ma'noga ega, u ya'ni ilgari jamlanib kelinayotgan axborotlar yig'indisidan iborat.

Ayrim soʻz birliklarida ifodalangan maʼno insoniyat toʻplagan tajribalarning, ularni oʻrab turgan olamdagi fakt va hodisalarning sxematik iniʼkosi boʻlib, ular tavsiflovchi, taʼriflovchi belgilarni, yaʼni toʻliq maʼnoli soʻzlarni hosil qiladilar. Boshqa til belgilari ifodalaydigan maʼnolar (olmoshlar, predloglar, bogʻlovchilar) til belgilari orasidagi ichki munosabatlarni, murakkab lisoniy belgilar-gaplar tarkibida fikrning turli munosabatlarini ifodalovchi axborotdan iborat.

Alohida ichki tizim orqali ifodalanadigan maʼnolar, masalan, oʻziga xos maʼno anglatuvchi belgilar soʻz yasovchi, soʻz oʻzgartiruvchi morfemalar boʻlib, ular maʼno ifodalaydilar va shu sababli ularni ayrim hollarda “yarim belgilar” deb ham atashadi. Soʻz belgisining asosiy farqlovchi xususiyatlardan biri u ifodalaydigan maʼnoning (ifodalanmishning) bosqichli prinsip asosiga qurilganidir. Zero, har qanday soʻz belgisi ifodalagan shakl fonemalardan, har qanday tilda chegaralangan miqdordagi “semasiologiyalashgan” (I.A.Boduen de Kurtene, 1963) tovushlaridan tashkil topadi. Ular turli brikuvlar orqali obyektiv borliqdagi, inson faoliyatining barcha jihatlariga oid tushunchalarni nomlovchi birliklarni yasaydilar. Soʻz birligining quyi bosqichida turuvchi ishtirokchilari fonemlarning farqlovchi belgilari boʻlib, ular faqat perseptiv (his qilish, idrok qilish) funksiyanigina emas, balki distinktiv (farqlovchi) funksiyani ham bajaradilar. Differensial belgili fonemalar oʻziga xos “belgilarning belgisi” (Byuler, 1934; Axmanova, 1966; Stepanov, 1975), “figuralar” deb ham talqin qilinadi.

Shunday qilib, soʻz belgisi umumiy bilishga oid vazifadan tashqari, tilning kichik strukturaviy (fonema, morfema) va katta (soʻz birikmalari, gap) birliklarini identifikatsiyalash (ajratish) vazifasini ham bajaradi.

Lisoniy belgilar oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi va shuningdek, bir-biridan ajralgan holda ishlatilmaydi. Har qanday til elementi u yoki bu sistema, mikrosistema, qator doirasida sayqallangan naʼmunalar asosida ikki turdagi strukturaviy oʻzgarishlar, yaʼni paradigmatic va syntagmatic birikuv qonuniyatlariga koʻra qoʻllaniladi. Misollarda keltirilgan oxirgi ikki lisoniy belgi oʻzaro oppozitsiyaga ega: virtual soʻz belgisi (leksik sistemada)-aktual soʻz belgisi (nutq aktida); Ular oʻrtasidagi oraliq oʻzi maʼlum darajada faollashgan soʻz belgisi-til leksik tizimining elementi (birligi).

1. Termin-umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi boʻlmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir soʻz yoki birikmadir;

2. Termin-konkret narsa-predmet, ashyo hamda mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;

3. Termin uchun muayyan taʼrif zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda maʼlum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yoʻl qoʻyuvchi, farqlovchi belgilarini ravshanroq koʻrsatish mumkin.

Oʻzbek tili lugʻaviy tarkibining asosini tashkil etuvchi asli oʻzbekcha, fors-tojikcha, arabcha leksemalardan iborat iqtisodiy terminlar sinonimiyasini darslik va qoʻllanmalarda, lugʻatlarda va boshqa manbalarda bot-bot uchratib turish mumkin. Masalan: mile-mil, line-chiziq, inch-dyuym, square mile-kvadrat mil, foot-fut, pound-funt, Barrel-barrel, Bushel-bushel, gallon-gallon, uncia-unsia, pinta-pinta, quarta-kvarta, centner-sentner, acre-foot-akr fut, phatom-fatom, pike-payk, calibre-kalibr, rude-rud, yard-yard, cicero-sitsero, hand-qoʻl, dot-nuqta, cord-cord, ton-tonna, peck-pek, long ton-uzun tonna, probar ton-probar tonna, a liquid pinta-suyuq pinta, cabelts-kabelit, rod-rod.

Xulosa: Baʼzi hollarda morfologik usulda, yaʼni affikslarning qoʻshilishidan hosil boʻlgan bir asosli leksemalar yonida shu asos ishtirokida hosil qilingan birikmalar paydo boʻlib qoladiki, bu ham oʻziga xos sinonimiyani yuzaga keltiradi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga oʻtish jarayonida tilimizga koʻpdan-koʻp terminlar (atamalar) kirib kelmoqda. Bularning muayyan qismi ona tilimiz imkoniyatlari asosida oʻzbekchalashtirib berilmoqda, maʼlum qismi esa baynalminal oʻzlashma sifatida ishlatilmoqda. Oʻlchov birliklari tilshunoslikda oʻziga xos oʻrin tutadi va ularning lingvistik tahlili, madaniyat va tilning oʻzaro bogʻliqligini anglashda muhimdir. Oʻlchov birliklari insonlarning

dunyoqarashi, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi, bu esa lingvistik va semiotik tadqiqotlarda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi (Lyons, 1977; Crystal, 2003).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Axmanova, O.S. (1966). *Slovar' lingvisticheskikh terminov*. Moscow: Sovetskaya Entsiklopediya.
2. Boboyeva, M.N. (2023). Interpretation of the problem of world linguistic representation in modern linguistics. *International Journal of Teaching and Learning and Education (IJTLE)*, 2(2). <https://dx.doi.org/10.22161/ijtle.2.2.2>
3. Boduen de Courtenay, I.A. (1963). *Izbrannye trudy po obshchemu yazykoznaniyu* [Tanlangan asarlar, umumiy tilshunoslikka oid maqolalar]. Moscow: Izdatel'stvo SSSR.
4. Bühler, K. (1934). *Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache*. Jena: Fischer.
5. Crystal, D. (2003). *The Cambridge encyclopedia of the English language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
6. De Saussure, F. (1959). *Course in general linguistics* (W. Baskin, Trans.). McGraw-Hill. (Original work published 1916)
7. Eco, U. (1976). *A theory of semiotics*. Indiana University Press.
8. Gumperz, J.J., & Hymes, D. (Eds.). (1986). *Directions in sociolinguistics: The ethnography of communication*. Blackwell.
9. Halliday, M. A. K. (1978). *Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning*. Edward Arnold.
10. Humboldt, W. von. (1988). *On language: The diversity of human language-structure and its influence on the mental development of mankind* (P. Heath, Trans.). Cambridge University Press. (Original work published 1836)
11. Jackendoff, R. (2002). *Foundations of language: Brain, meaning, grammar, evolution*. Oxford University Press.
12. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
13. Lyons, J. (1977). *Semantics* (Vols. 1–2). Cambridge University Press.
14. Sapir, E. (1921). *Language: An introduction to the study of speech*. Harcourt, Brace and Company.
15. Stepanov, Yu.S. (1975). *Semiotika i filosofiya yazyka*. Moscow: Nauka.
16. Whorf, B.L. (1956). *Language, thought, and reality: Selected writings of Benjamin Lee Whorf* (J.B. Carroll, Ed.). MIT Press.